

QIPCHOQ DIALEKTI FRAZEOLOGIZMI

Xalilov Nuriddin

*Guliston davlat universiteti**Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs magistranti*

Annotatsiya. *Maqolada sheva haqida, qipchoq shevalari frazeologizmlari, frazeologizmlarning xilma-xil shakllari, shuningdek frazemalarning tuzilishi jihatdan turlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *sheva, qipchoq shevasi, frazeologizm, antonim, komponent, struktura.*

Bilamizki, yurtimizda ilk renesans davrida, til va adabiyot ancha rivojlandi. Respublikamiz hududlarining turli joylarida har xil shevaga xos sozlar shakllana boshladi.

O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi. Prof. Y.D.Polivanov asrimiz birinchi choragidayoq o‘zbek tili o‘zining ko‘p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida o‘zining ilmiy ishlarida ma‘lumot bergan edi.

Sheva (fors. – harakat tarzi, tarz, usul) – *tilning fonetik, grammatik* va lug‘aviy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan eng kichik hududiy ko‘rinishi – sezilarli lisoniy tafovutlari bo‘lmagan bir yoki bir necha aholi maskani (odatda, qishloq)da yashovchilarning so‘zlashuv vositasi sifatida qo‘llanadi. Sheva – bu boshqa Sheva tizimlaridan fonetik, grammatik, so‘z yasalishi va lug‘aviy belgilariga ko‘ra farqlanuvchi lisoniy tizim sifatida mavjud bo‘ladi. Mas, qipchoq lahjasining mang‘it yoki saroy shevasi, qarluq lahjasiga mansub marg‘ilon shevasi va boshqalar o‘zbek tilining eng kichik hududiy ko‘rinishlari hisoblanadi. Alohida Shevalar birikib, lahjasi tashkil etadi. Shevalar tizimining murakkablik darajasi, asosan, ekstralingvistik omillar:

Shevaning alohidalanish (ajralib qolish) darajasi, muayyan Sheva vakillarining boshqa Shevalar va tillarning vakillari bilan aloqa qilish darajasi, adabiy tilning shahriga ta‘siri va shahrik.ga bog‘liq. Alohida ajralib qolgan Shevalarda uning vakillari bilan atrofdagi aholi o‘rtasida aloqalarning yo‘qligi (geografik yoki siyosiy sabablar, atrofdagi aholining til, madaniyat, diniy e‘tiqod jihatdan ayni Sheva vakillaridan keskin farklanishi tufayli), sheva vakillarining an‘anaviy turmush tarzini saqlab qolishga astoydil intilishi oqibatida Sheva juda sekinlik bilan o‘zgaradi, katta va kichik yoshdagilarning tilidagi farq sezilsiz darajada bo‘ladi. Adabiy tilning yoki boshqa shahrining kuchli ta‘siri ostida bo‘lgan shahrida aholining turli guruhlari nutqiga xos bo‘lgan, birbiriga qarama-qarshi qo‘yilgan va turli darajada farqlanadigan an‘anaviy (qad.) va yangi qatlamlar ajralib turadi.

Milliy til tushunchasining hajmi va qo‘llanish doirasi keng bo‘lib, lahja va Shevalarni ham qamrab oladi. Shevalar adabiy til tushunchasiga kirmaydi, biroq ular tilning quyi shakli va tarmoqlari hisoblanib, adabiy tilni boyitish uchun xizmat kiladi. Adabiy til me‘yorlarining takomillashuvi, fan va madaniyat taraqqiyoti, shahar bilan qishloq o‘rtasidagi tafovutlarning kamayib borishi kabi ekstralingvistik omillar tufayli Shevalar ham asta-sekin o‘z xususiyatlarini yo‘qota boradi.

Olaning lisoniy manzarasida yoki insonning til shuurida so‘zlar bilan bir qatorda tarkibi jihatidan barqaror bo‘lgan va nutqda tayyor holda aks ettiriladigan frazeologik birliklar yoki frazeologizmlar mavjud [Mamatov A., 2019: 135].

Frazeologizmlar, ularning turlari, shakl va ko'rinishlari qator xorijiy va o'zbek olimlari tomonidan o'rganilgan. Biroq frazeologizmlarning shevalar leksikasi bilan bog'liq tadqiqi etarli darajada deb bo'lmaydi. Frazeologizmlar shu tilda so'zlashuvchilarning til tarixini, madaniyatini, turmush tarzini, an'alarini, kasbkorini o'zida namoyon qiladi. Qashqadaryo qipchoq shevasi vakillari nutqida ham turli-tuman, minglab iboralar uchraydiki, ular kelajak avlod tilida ham xizmat qilishi uchun ularni o'z vaqtida o'rganishimiz, lug'atlar yaratishimiz lozim. Quyida Qashqadaryo qipchoq shevasi antonim frazeologizmlari haqida to'xtalamiz.

Sheva vakillari nutqida uchraydigan antonim frazeologizmlarning ham xilma-xil shakllari mavjud. Bitta frazema tarkibidagi antonimlikni quyidagilarda kuzatish mumkin: "ignaday gapni tuyaday qilmoq", "yegani oldida, emagani ortida", "it yotish, mirza turish", "yerga ura, ko'kka sapchiydi" kabi. Frazema tarkibidagi igna-tuya, old-ort, yotish-turish, er-ko'k leksemalari bir frazema tarkibida ishtirok etib, bitta ifoda ichida antonimlikni yuzaga keltirishga xizmat qilgan. Antonim frazemalar tarkibidagi bir komponent ayni shu so'z bilan ifodalanib, ikkinchi komponent o'zaro ziddlik hosil qiladi. Masalan, qo'li uzun - qo'li kalta; ko'zi to'q - ko'zi och; shashti baland - shashti past; terisi qalin - terisi juqa; fe'li keng - fe'li tor; ko'nglini ko'tarmoq - ko'nglini cho'ktirmoq singari. Ko'rinadiki, keltirilgan antonim frazemalar tarkibida qatnashgan birinchi komponent ayni bir so'z, ikkinchi komponent esa antonimlikni yuzaga keltirgan zid ma'noli leksemdir. Shuningdek, ovzingga jov - ovzingga tosh; rangiga qon yugurdi - rangi bo'zarib ketdi; tili qisq - tili ustun; oyoqdan qolmoq - oyog'i chiqmoq; o'pkasi to'lib kelmoq - o'pkasini bosmoq antonim juftliklarida birinchi komponent aynan bir so'z, ikkinchi komponentda ham o'zaro zid leksemalar ishtirok etmagan. Masalan, jov va tosh, qisq va ustun kabi. Bu holatda iboradan anglashiladigan ma'no qarshiligi asosida antonimlik yuzaga kelgan. Har xil leksik negizlardan tarkib topgan antonim frazemalar. Gap otmoq-tilini tiymoq; dimog'i chog'-avzoyi soliq; aft-angori sovuq-istarasi issiq; qasam urganday-bir qultim suv bilan ichguday; orasidan ola o'tdi- orasiga qil sig'maydi; chap tarafidan turgan-ertalab bo'ri ko'rgan; toboni teshilgan- qoqqan qoziqday; jag'i ochilib qolgan-ovziga tolqon solgan; palagi toza-zoti past; pinak buzmadio'zini o'zi edi; peshonasi sho'r-monglayi olti qarich; diydasi qattiq- ko'ngli bo'sh singari.

Qipchoq shevalari asosan Surxondaryo va Qashqadaryoda tarqalgan degan qarash juda mashhur. Toshkent va Farg'ona vodiysi qipchoq shevalaridan xoli hudud deb qaraladi. Bunday qarash nafaqat xalq orasida, balki filologlar orasida ham uchraydi. Vaholanki, qipchoq shevalari O'zbekistonning hamma mintaqalarida bor. Aslida bu masala o'z vaqtida ba'zi tilshunoslar tomonidan yaxshi o'rganilgan, lekin ularning tadqiqotlari bugun unutilganday, ularga kam murojaat qilishadi. Taniqli o'zbek tilshunosi, qipchoq shevalarining eng yirik tadqiqotchisi Xudoyberdi Doniyorov 70-yillardayoq qipchoq shevalarining tarqalish geografiyasini juda to'g'ri tavsiflab bergan edi. Quyida uning tavsifini o'z kuzatishlarim bilan omixtalashtirib, qipchoq shevalari qayerlarda qayd etilganini sanab o'taman. Qipchoq tilli aholining asosiy qismi sobiq Buxoro amirligi hududida istiqomat qiladi. Surxondaryo viloyatining barcha tumanlarida qipchoq shevalari yoyilgan; ular Termiz, Denov, Boysun, Sariosiyo va Uzundan boshqa barcha tumanlarda ko'pchilikni tashkil etadi. Qashqadaryoning ham barcha hududlarida qipchoq tilli aholini uchratish mumkin. Hatto Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' singari qarluq tilli tumanlarning chekka qishloqlarida ham qipchoq shevalari

saqlanmoqda. Samarqand viloyati ham qipchoq shevalari zonasiga kiradi. Urgut, Pastdarg‘om, Tayloq, Narpay, Kattaqo‘rg‘on kabi tumanlarda qipchoq shevalari qarluq shevalari bilan qo‘shnichilik qilsa, Jomboy, Bulung‘ur, Payariq, Ishtixon, Qo‘shrabot, Nurobod, Paxtachi kabi tumanlar deyarli to‘liq qipchoq shevalarida gapiradi. Jizzax, Navoiy, Sirdaryo viloyatlarida ham qipchoq tilli aholi ko‘pchilikdir.

Bundan tashqari, Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanida, Toshkent viloyatining Piskent, Ohangaron, Oqqo‘rg‘on, Bekobod, Parkent tumanlarida qipchoq shevalari qayd etilgan. Sobiq Qo‘qon xonligi hududlariga keladigan bo‘lsak, Farg‘ona viloyatining Qo‘sh tepa, Uchko‘prik, O‘zbekiston, Bag‘dod, Buvayda, Dang‘ara, Beshariq, Furqat, Namanganning Pop, Norin, Uychi, Andijonning Baliqchi, Shahrixon kabi tumanlarida ko‘p sonli qipchoq tilli aholi yashaydi. Sobiq Xiva xonligining shimoliy hududlari qadimda Oltin O‘rda tarkibida bo‘lgan va azaldan qipchoq tilli ko‘chmanchilar istiqomat qiluvchi makon hisoblangan. Xorazmda juda qadimiy va o‘ziga xos qipchoq shevalarini uchratishimiz mumkin. Viloyatning Gurlan, Yangibozor tumanlari aholisining asosiy qismi mana shunday shevalarda gapiradi. Xiva, Qo‘shko‘pir, Hazorasp, Bog‘ot kabi tumanlarda ham juda ko‘p qishloqlarda qipchoq shevalarida so‘zlashuvchi aholi istiqomat qiladi. Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarining asosiy qismi ham shu guruhga kiradi. Bu tur shevalar Turkmanistonda (asosan Lebap viloyatida), Tojikistonda (asosan Xatlon viloyatida), Afg‘onistonda (asosan Bog‘lon, Badaxshon, Tahor, Qunduz ulusvollarini – viloyatlarini qamrab oluvchi Qatag‘on mintaqasida), oz miqdorda Janubiy Qozog‘istonda va Janubiy Qirg‘izistonda tarqalgan. Qipchoq tilli o‘zbeklarning etnogenezdagi o‘rni Yuqoridagi tavsifning o‘ziyiq qipchoq shevalari naqadar keng yoyilganini va o‘zbek xalqining juda katta qismini qamrab olishini ko‘rsatib turibdi. Ularning salmoqli ulushi XVI-XIX asrlarda shaharlarga ko‘chib o‘tib, o‘troqlashib, qarluq va o‘g‘uz shevalariga o‘tib ketganini inobatga olsak, qipchoq tilli o‘zbeklar o‘tmishda ulkan jamoat bo‘lgani anglashiladi.

Afsus, o‘zbek tarixchiligida bu faktni nazardan qochirib, XVI-XIX asrlarda Dashti Qipchoqdan kirib kelgan aholining o‘zbek xalqi etnogenezidagi rolini past baholash tendensiyasi mavjud. 1940-yillarda rus tarixchisi Yakubovskiy ilgari surgan nuqtayi nazarga ko‘ra, Dashti Qipchoqdan kirib kelgan, o‘zini o‘zbek deb atagan qipchoq tilli nufus mahalliy aholiga nisbatan juda kam bo‘lgan, o‘zbek etnogeneziga hech qanday ta‘sir o‘tkazmagan va shunchaki bu yerda azaldan yashab kelgan xalqqa o‘z nomini bergan xolos. Bu nazariyani bugun ham ba‘zi tarixchilar takrorlaydi. Lekin bugungi dialektologik vaziyat ham, XVI-XIX asr yozma manbalari ham qipchoq tilli aholi juda ko‘p bo‘lganini isbotlab turibdi. Nega unda haligacha Yakubovskiyning nuqtayi nazaridan voz kechilmayapti? Fikrimcha, ba‘zi tarixchi va ziyolilarda “o‘zimizni Shayboniyxon o‘zbeklari bilan bog‘lasak, undan oldingi tarixga da‘vo-garlik qila olmaymiz”, degan qo‘rquv bor. Avvalo, tarixiy haqiqat bu kabi qo‘rquvlar tufayli buzilmasligi kerakligini ta‘kidlab o‘tay. Ikkinchidan, har qanday zamonaviy xalq o‘tmishdagi bir qancha etnik guruhlardan tarkib topadi. Ulardan birini haqiqiy ajdod deb tanlab olish, boshqasining ahamiyatini tushirish o‘tmish avlodlarga nisbatan hurmatsizlik bo‘ladi.

T. Sultonovning hisob-kitoblariga ko‘ra, 1510-yilda Movarounnahrda joylashgan o‘zbeklarning adadi 240 mingdan 360 minggacha bo‘lgan. Undan so‘ng yana 250 yil

davomida o‘n minglab ko‘chmanchilar tinimsiz ravishda Xivaga, Buxoroga va Qo‘qonga kirib kelgan. Buxoro amirligi aholisi 1822-yilda 2 478 000 kishini tashkil etganini, shulardan 1,5 millioni o‘zbeklar bo‘lganini inobatga olsak (rus diplomati Yegor Meyendorf ma’lumotlari), ularning asosiy qismi Shayboniyxon o‘zbeklari avlodi bo‘lganini tushunish qiyin emas: 1510-va 1822-yillar orasidagi 312 yil ichida 240–360 minglik dastlabki qipchoq tilli aholi hamda ulardan so‘ng tashrif buyurgan o‘n minglab ko‘chmanchi bir necha barobar ko‘paygan bo‘lishi kerak edi. Xiva va Qo‘qonda ham ular oz bo‘lmagan. Bugungi o‘zbek etnosi mana shu ko‘chmanchi o‘zbeklarning mahalliy chig‘atoylar va boshqa kichikroq guruhlar bilan qo‘shiluvidan shakllangan. O‘zbek etnogenezi borasidagi bu qarash Yakubovskiydan oldingi Rossiya imperiyasi sharqshunosligida asosiy hisoblangan. Hozirgi kunda ayrim o‘zbek tarixchilari yuqoridagi raqamlarni e’tiborga olayotgani, qipchoq tilli qabilalarning ahamiyatini e’tirof etayotgani quvonarli hol. Qarluq, qipchoq, o‘g‘uz – bir ildiz.

O‘zbek fanida uchrab turadigan yana bir yondashuv bor: ular chig‘atoylar va o‘zbeklarni ikki alohida, bir-biriga begona xalq deb biladi, Shayboniyxonning yurishini esa bosqinchilik sifatida baholaydi. Vaholanki, u paytlarda bugungi etnos, millat tushunchalari bo‘lmagan, qabilalar tez-tez u siyosiy birlashmadan bunisiga o‘tib turgan va bir-birini begona deb bilmagan. XV–XVI asrlar chig‘atoylari va o‘zbeklari bir-biridan uzoq bo‘lmagan: ularning kelib chiqishi umumiy edi, tili va madaniyati yaqin edi, ayrim qabilalar chig‘atoylardan o‘zbeklarga, o‘zbeklardan chig‘atoylarga o‘tib turardi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Qashqadaryo qipchoq shevasida adabiy til leksik qatlamida uchramaydigan frazeologizmlar miqdori talaygina. Har bir frazeologizm o‘ziga xos xususiyatlarga ko‘ra alohidalikka ega. Frazeologizmlarning ma’noviy jihati orqali ham ularning xilma-xil shakllari namoyon bo‘ladi. Antonim frazeologizmlar ham tilning lug‘at tarkibini boyitish, kengaytirish, fikrni ta’sirchan ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular fikrning o‘tkir, ta’sirchan va bo‘yoqdor bo‘lishining muhim vositasi hamdir. Shunga muvofiq shevalar leksikasiga mansub iboralarni tadqiq etish tilning o‘ziga xos leksik, uslubiy, grammatik xususiyatlarini, me’yorlarini xolis baholash, tavsiflash, ularning leksikografik talqinini ta’minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Noshir, 2019. – 135 b.
2. Жуманазарова Г., Болтаева Б., Кулбоева Д. Фразеологизмларнинг нутқда қўлланилиши. – Тошкент: Турон замин зиро, 2017. – 28 б.
3. Маматов А., Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи. – Тошкент, 2018. – 91 б.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1966. – 305 б.